

«Zulfiya» nomidagi
Davlat mukofoti sohibalari

UMIDA



Odatda har bir o'quvchining o'zi qiziqadigan bir fani bo'ladi. Samarqandlik Umida Jo'rayeva bolaligidanoq matematika faniga qiziqib qoldi. Bilmaganlarini ustozlaridan so'rab o'rgandi, bilganlarini sinfdoshlariga ham o'rgatdi. Bilimini to'garaklarda boyitib bordi. Uning ibratli bir odati bor: o'z oldiga bir maqsad qo'ydimi, unga erishmaguncha ko'ngli joyiga tushmaydi. Fan olimpiadalarida, tanlovlarda ishtirok etsa, faqat g'oliblikni niyat qiladi va buning uchun astoydil intiladi.

2008-yilda tabiiy va gumanitar fanlar bo'yicha xalqaro olimpiadaning respublika bosqichida va Moskva shahrida bo'lib o'tgan VI xalqaro olimpiadada g'oliblikni qo'lga kiritdi. 2009-yilda esa matematika fanidan o'tkazilgan olimpiadaning viloyat bosqichida 1-o'rinni egalladi.

O'tgan yili respublika fanlar olimpiadasida 1-o'rinni egallab, matematika va informatika fanlaridan o'tkaziladigan xalqaro olimpiadada ishtirok etish uchun yo'llanmani qo'lga kiritdi. Shu yili Qozog'istonning Ostona shahrida bo'lib o'tgan 51-xalqaro matematika olimpiadasida kumush medal sohibasi bo'lib, yurtimiz sharafigi munosib himoya qilib qaytdi.

Hozirda Samarqand Davlat universitetining 1-bosqichida tahsil olayotgan Umidaning o'ndan ortiq ilmiy maqolalari va uslubiy qo'llanmalari universitet nashriyotida chop etildi. Shuningdek, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati tomonidan o'tkaziladigan turli tadbirlarda faol ishtirok etadi, sportning tennis turi bilan shug'ullanadi.

U bu yil Zulfiya nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'lishdek baxtga muyassar bo'ldi. Beg'ubor qalbidagi bu ezgu-niyat o'z o'rnini yangi-yangi orzu-umidlarga bo'shatib berganiga aminmiz.

Umidaning umidlari ijobatiga biz ham tilakdoshmiz.

Ta'tilga mazmun naqd

Dilnozaxon Mirkomilova Uchtepa tumanidagi 193-maktabning 4-«A» sinfini a'lo baholarga yakunlayapti. Ustozlari Muattar opa Qosimova, Dilbar opa Bobomuhamedova uning yutuqlaridan mamnun.

Ayni paytda qizaloqning sira tinimi yo'q, chunki so'nggi qo'ng'iroq yaqin-da. Bu kunga Dilnozaxon o'zgacha hozirlik ko'ryapti.

Uning ta'til uchun rejasi ham tayyor: dugonasi Ma'suda Yaxshibekova bilan birgalikda uning onasidan to'qishni o'rganmoqchi.



USHBU SONDA:

Bu so'nggi
qo'ng'iroq
emas...

2-bet

Ulg'ayganing
muborak!

5-bet

O'n ikki dor
mo'jizasi

7-bet



BU SO'NGGI QO'NG'IROQ EMAS...

Munavvar tong chog'i, maktabga oshiqayotgan tengdoshlaringizning quvnoq ovozlari olamni tutgan. Darvozasi oldidagi taxta o'rindiqda o'tirgan bobo ularga havas bilan qaraydi. Biz ham Vatan bergan imkoniyatlardan unumli foydalanayotgan siz a'lochi, mehnatsevar, intiluvchan o'quvchilarga quvonib boqamiz: bugun siz xalqaro tanlovlar g'olibi, sport bo'yicha jahon chempionlari, yana bir qancha ko'rik-tanlovlar sovrindorlari, oltin, kumush, bronza medallarining sohiblarisiz! Bularning har biri nafaqat o'zingiz uchun, balki yor-u birodarlaringiz, qo'ni-qo'shni, mahalla-ko'y, ayniqsa, ota-onangiz, bobo va momongiz uchun ulkan baxt, katta shodiyona. Sho'ro tuzumi davrida yashab, qiyinchiliklar ko'rgan, bunday istiqbolli kunlarni orzu qilgan bobogingiz sizdan mamnun, «shukr, shu kunlarga yetdik!», deya duoga qo'l ochadilar.

Prezident Islom bobongiz «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida: «Vatan ravnaqi avvalo uning farzandlariga, ularning ma'naviy va jismoniy kamolotiga bog'liq!», deya aynan sizlarga katta ishonch bildirganlar. Kechagina Termizda o'tgan «Barkamol avlod» sport musobaqalarida 867 nafar tengdoshlaringiz ishtirok etib, olqishga sazovor bo'ldilar. Siz ham ularni havas bilan kuzatganingiz aniq. Biz kattalar esa bundan-da ko'proq havas bilan sizlarga boqarkanmiz, mamlakatning ishonchli ertasi voyaga yetmoqda, ular Vatanimizni gullarga, shon-sharafga o'rashadi, deya umid qilamiz.

O'quv yili tugashiga ham sanoqli kunlar qoldi. Bir yil qanday tez o'tdiya, go'yoki oqar daryo! Vaqt hech qachon kutib turmaydi, u faqat olg'a intiladi. Vaqtdan unumli foydalaning bolagina yutadi. Ortga qara, ey o'smir, o'tgan bir yildan nimalar ola bilding, nimalarga erishding? Bir donishmand: «Aqlli inson har zamon-har zamonda o'zini sarhisob qilib turadi», degan ekan. Demak, sen ham bugun o'zingni sarhisob qilishga loyiqsan. So'nggi qo'ng'iroq ham shunchaki o'yinchoq emas, balki u ham ogohlik ramzidir.

Bu safar ham siz aziz muxlislarimizdan, ko'plab xatlar oldik. So'nggi qo'ng'iroq oldidan bitgan maktabingizni diqqat bilan o'qib, a'lo o'qiyotganingizdan, yuksak orzu havaslar bilan yashayotganingizdan va bu yo'lda dadil qadamlar qo'yayotganingizdan mamnun bo'ldik.

Qo'limda Xorazm viloyatining Hazorasp tumanidagi Beshta qishlog'ida yashovchi Boltayev Mardonbek tomonidan yuborilgan maktub: «Men «Tong yulduzi»ni yoshligimdan sevib o'qiyman. Bu yil ham unga obuna bo'lganman. Gazetaning yangi-yangi iste'



dodli yoshlarni izlab topayotganidan mamnunman», deb yozibdi u va o'z ijodidan namunalari jo'natibdi.

To'lin oyga qarayman,
Ko'ngillarim to'ladi.
Zuhro yonsa tong chog'i,
Shodlikdan dil kuladi...

Qadrli Mardonbek!

Ko'rinib turibdiki, sizda intilish bor. Yaxshi ijodkor bo'lish uchun esa juda ko'p izlanmoq kerak. Ayni damda siz tahsil olayotgan Hazorasp tumanidagi 1-son ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maktab, bizingcha, mamlakatimizning eng yaxshi o'quv dargohlaridan biri. Ustozlar bilan maslahatlashing, kamchilik va xatolardan cho'chimang: bu dunyoda hech kim shoir yoki yozuvchi bo'lib tug'ilgan emas.

Jizzax viloyati, Forish tumanidagi 30-maktab-internet o'quvchisi Ozodjon Qo'nishev bir ertak yozib, unga chizgan rasmlarini yuboribdi. Ancha yaxshi, lekin yangi mavzuda ijod qilishni o'yab ko'rish kerak.

Andijon tumanidagi yana bir 10-son ayrim fanlar chuqur o'rgatiladigan maktab-internetning 6-«V» sinf rahbari Yo'ldoshboy aka Hamroqulov o'z o'quvchisi Abbosbek Nazarboyev haqida iliq so'zlar bitib, uning tabiat shaydosi ekanligini, bo'sh paytlarida she'rlar mashq qilishini yozibdi.

Yo'ldoshboy aka, o'quvchingizga bo'lgan e'tiboringiz uchun rahmat! Bundan minnatdor bo'ldik, Abbosjon she'r yozish mashqini olayotgan ko'rinadi, bu yaxshi, lekin hali u ko'p izlanishi, o'qib-o'rganishi lozim. Bu yo'lda siz unga hamisha yordam ko'rsatasiz, degan umiddamiz.

Shuningdek, juda ko'p o'quvchilarimiz chizgan rasmlarini ham jo'natganlar. Bir nasrani alohida qayd etar edikki, bu havaskorlarning ko'pchiligi ertak-kitoblari o'qib yoki multfilmlar tomosha qilib, taassurotlari asosida ko'chirma rasmlar chizadilar. Bundan qochish kerak. Siz yaxshisi, o'zingiz yashayotgan joy tabiatini, yaxshi odamlariyu, a'lochi tengdoshingizni qalanga oling. Hovlingizda qanday uy hayvonlari bor, odatlari qanaqa? Mana shularni o'rganing va ularning holatlarini qo'g'ozga tushirsangiz, ishlaringiz ko'ngildagidek jonli va ta'sirchan chiqadi.

Bizga maktub yo'llagan jizzaxlik Shahodat Murodova, Samarqand viloyati,



Payariq tumanidagi 58-maktab o'quvchisi Gulnigor Eshquvatova, Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 64-maktab o'quvchisi Shahodat Oripova va manzilini yozishni unutgan Sardor Esonovga ham o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz va ulardan yangi xat-xabarlar kutib qolamiz.

Bitta taklifimiz ham bor.

Hademay yozgi ta'til boshlanadi. Bu umringizning eng baxtli damlari ekanligini unutmang. Xo'sh, yozgi ta'tilni qay tarzda o'tkazasiz? Aniq reja tuzib oldingizmi? Hammasi puxta o'yab qo'yilgan bo'lsa, olam guliston. Ana endi bizga quloq soling: yozgi ta'tilda biror joyga mehmonga yo sayohatga borsangiz, u yerda kimlar bilan uchrashganingiz, nimalar haqida suhbatlashganingiz, tabiat ko'rinishlari haqida bizga insho yozib, rasmlar chizib yuboring. Shuningdek, u yerlarda qanday tarixiy binolar mavjud, qaysi daryo, ariqlar bor, qanday yangi so'zlarni o'rgandiz, qanday kitoblari haqida so'z bordi, shevadagi qaysi so'zlar esingizda qoldi? Mana, Siz uchun bir olam dastur. Xullas, so'nggi qo'ng'iroq «o'qish tugadi, bor, dam ol, ashulangni ayt» degani emas, so'nggi qo'ng'iroq yangi o'quv yilida yangi kuch, yangi-yangi orzu-istaklar bilan jonjon ilm dargohingizga qaytishing uchun katta imtiyoz, degani hamdir. Ayni shu hayajonli damlarda gazetamizning yangi soni qo'lingizda turibdi. Jamoamiz barchangizga maroqli dam, olam-olam quvonch, baxt-saodat tilab qoladi.

So'nggi qo'ng'iroq!

Yo'q, bu so'nggi qo'ng'iroq emas, deging keladi.

To'lqin HAYIT



1. Lizing nima?

Bu to'g'rida tushuncha bergan edik. Takrorlashning ziyoni yo'q, deyishadi. Xullas, «Lizing» inglizcha so'z bo'lib, «ijara», «ijaraga olmoq» ma'nosini bildiradi.

Fermer akalaringiz lizing asosida ko'p yaxshi ishlarni amalga oshiryaptilar. Ularning tajribalarini o'rganishga harakat qiling.

2. Ibn Sino asarlari

Turli manbalarda buyuk olimning 450 dan ziyod asarlari borligi qayd etilgan. Ulardan 242 tasi bizgacha yetib kelgan.

Eng mashhuri «Tib qonunlari»dir.

Asarlarining

80 tasi – falsafaga,

43 tasi – tabobatga,

19 tasi – mantiqqa,

26 tasi – psixologiyaga,

23 tasi – tibbiyot ilmiga,

7 tasi – astronomiyaga,

1 tasi – matematikaga,

1 tasi – musiqaga,

2 tasi – kimyoga,

9 tasi – etikaga,

4 tasi – adabiyotga oid.

8 tasi boshqa olimlar bilan yozishmalaridan iborat.

3. Durdona fikrlar

Alisher Navoiy bobomiz saxovatli kishilarni madh etadi, ulug'laydi. Uning fikricha, bunday ulug' sifat pokiza kishilarga xosdir.

Yoki Mashrab bir umr oddiylikka intildi. «Yomonning yaxshisi bo'lguncha yaxshining yomoni bo'l», degan ham uning o'zidir.

O'zingizcha bir mulohaza qilib ko'ring, shoir nima demoqchi?



KASBLARNING SEHRLI OLAMI



Yozgi ta'tilga sanoqli kunlar qolgan bo'lsa-da, maktablarda ustozlar va shogirdlar turli tadbirlar o'tkazishdan charchamayaptilar. Do'stingiz «Tong yulduzi» siz aziz o'quvchilar bilan uchrashish maqsadida maktablarga tashrif buyurganida, biri-biridan qiziqarli tadbirlarning guvohi bo'lmoqda.

Toshkent viloyatining Zangiota tumanida joylashgan 78-maktabdagi tengdoshlaringiz «Kasblarning sirli olami» nomli tadbirda turli kasb egalari bilan uchrashdilar. Respublika «Nuroni» jam'armasining yoshlar bilan ishlash guruhi a'zosi Gulchehra Karimova, shoira va shifokor Muazzam Ibrohimova, savdo xodimi Zuhra Mustaqimova, muallima Chinnixon Saidovalar bilan bo'lgan savol-javoblar qiziqarli suhbatga aylanib ketdi. O'z kasblari haqida to'liqlanib so'zlangan



mehmonlar tajribalaridan kelib chiqqan holda o'quvchilar savollariga javob berdilar.

Maktabdagi Dilorom Valiyeva rahabrlilik qilayotgan to'quvchilik to'garagi a'zolarining ishlarini ko'rib, barcha qoyil qoldi. Bundan tashqari, volleybol, basketbol, kikkoksing, futbol to'garagi a'zolarining chiqishlarini mehmonlar hayajon bilan tomosha qilishdi.

O'quvchilar tadbir davomida kimki harakat qilsa, orzusiga erishib, o'zi sevgan kasbning mohir ustasi bo'lishi mumkinligini tushunib yetdilar. Bu uchrashuv barchada katta taassurot qoldirdi.

TIL BILGAN - EL BILADI

Yunusobod tumanidagi 98-maktabda olib borilayotgan ishlar ham tahsinga sazovor. Ingliz tili muallimasi Iroda Hikmatovaning «Kim bo'lsam ekan?», Nozima Yoqubjonovaning «Angliyada may bayrami», Ella Petrovaning «Angliyaning sanoati» kabi ochiq darslari turli ko'rgazmalarga boyligi bilan yuqori baholandi. Fan oyligida Gulnoza Mahkamboyeva, Dilfuza Aytboyeva, Jahongir Akbarov, Mohlaroyim Toshpo'latova kabi o'quvchilar faol ishtirok etdilar.

Poytaxtimizdagi 51-fransuz tiliga ixtisoslashtirilgan maktabda bo'lib o'tgan «Quvnoq qo'shiqlar» tanlovi konsertga aylanib ketdi. Hay'at a'zolariga g'olib guruhni aniqlashda ota-onalarning olqishlari katta yordam berdi. Tanlov yakuniga ko'ra, 1-o'rin 4-«V», 2-o'rin 4-«B», 3-o'rin 4-«G» sinf o'quvchilariga nasib etdi. 1-o'rin sohiblari quvonchiga

QUVNOQLAR QUVONCHI

biz ham sherik bo'ldik va ularni suhbatga chorladik:

– Sinfimizda iqtidorli o'quvchilar juda ko'p, – deydi 4-«V» sinf rahbari Rohila Muzaffarova. – Bolajonlarimning har biri bir olam desam, mubolag'a bo'lmaydi.

Quvnoq o'g'il-qizlarning quvonchini qarang! Istdardimki, ularning ko'zlaridagi bu quvonch hech qachon so'nmasin!

Sevara QAHHOROVA: – Buvijonlarimizga atab kuylagan qo'shig'imizga dirijorlik qilish menga judayam yoqdi. Biz bu kunning orziqib kutgan edik. Birinchi o'rinni olishni judayam xohlaganimiz uchun ham, tanlovga yaxshilab tayyorgarlik ko'rdik. Bugungi yutug'imiz nafaqat bizniki, balki bizga ta'lim-tarbiya berayotgan ustozlarimizniki hamdir...

Ochig'i, bu ahlil, aqlli, sho'x-shodon o'quvchilarga juda havas qildik. Kelgusida bundan-da ulkan muvaffaqiyatlar yor bo'lishini tilab, ular bilan xayrlashdik.

Gulyuz BAHODIR qizi



«Onajonim – tabiat» insholar tanloviga

NAJOT KAMARI



O'tgan yili akam ikkimiz betob bo'lib qoldik. Shifokorlarning aytishicha, mashinalardan chiqayotgan tutunlar, xazonlarning yoqilishi natijasida havo ifloslanayotgan, buning oqibatida bizning nafas yo'llarimiz kasallikka chalinayotgan ekan. Ular bizga havo almashtirishni maslahat berishdi va biz Bo'stonliq tumanidagi «Soyliq» oromgohi tomon yo'l oldik. U yerda toza havodan to'yib-to'yib nafas oldik, o't-o'lanlar ustida dumalab, rango-rang gullar terdik. Ayniqsa, o'z yo'llarimiz bilan meva terib yeyishning gashti boshqacha bo'lar ekan.

Oromgoh direktori Anvar bobo Soliyevning aytishicha, qarag'ay va archa daraxtlaridan chiqadigan efir moyi yuqori nafas yo'llarini davolashda yaxshi natija berar ekan.

Bir vaqtlar sharqirab suv oqib, endilikda qurib qolgan pastlikdagi soyni aholi hali ham Oqtoshsoy, Kamar, Shamol yo'li deya o'z nomlari bilan atasharkan. Shamol toza havoni o'sha yerda yig'ib, unga nam havo, daraxtlardan chiqayotgan efir moyining hidi qo'shib, mayin, musaffo havo paydo bo'lar va u biz turgan joyga yetib kelarkan.

Kamarga biz kabi xastalangan bolalar, otaxon-u onaxonlar ham kelishar ekan. Ularning dard tufayli aziyat chekayotganlarini ko'rib, toza havoni ifloslantirayotgan amaki va xolalardan xafa bo'lib ketdim.

Tog'ning yuqori qismida joylashgan bu joyni «najot kamari» deb nomladim.

Dilbar PRIMOVA

Tarbiya haqida etyud

O'Z-O'ZINGDAN UYALGIN!

«Uyating bormi?», «Muncha uyatsiz bolasan?», «Odami uyatlarga qoldirding-al!».

Ushbu iboralarni sizlar ham tez-tez eshitib turasizlar. Shundaymi? Ehtimol bu so'zlar ba'zi do'stlarimiz sha'niga aytilgandir. Ehtimol o'zimizga ham. Har qalay uyat bilan bog'liq voqea-hodisalar tez-tez sodir bo'lmasa-da, ba'zan hayotimizda ro'y berib turadi. Odam bolasi bilib-bilmay ba'zan uyat ishlar qiladi, beixtiyor uyat so'zlarni aytib yuboradi, o'zi sezmaganda uyatsizlik ko'chasiga kirib qoladi. So'ng pushaymon yeydi. Pushaymon bo'lmaslik tarbiyasi esa asosan bolalikdan, yoshlikdan boshlanadi. Birinchi galda odam bolasi uyat ishlarni qilishdan o'zini tiyishi kerak. Uyatli qiliqlardan, harakatlardan mutlaqo yiroq bo'lgani yaxshi. Ikkinchidan uyat so'zlarni og'izga olmaslik, uyat gaplardan tilni tiyish ham odamning yuksak madaniyatini ko'rsatadi.

Afsuski, ba'zan jamoat joylarida, avtobuslarda, hovlilardagi o'yingohlarda ayrim bolalarning birlariga uyalmasdan aytayotgan o'ta uyat so'zlari quloqqa chalinadi. Ba'zan yoshgina bolaning og'zidan chiqayotgan uyat va rasvo so'zlarni, so'kinishlarni eshitib, kishining qon bosimi ko'tariladi. Yoki ba'zan xotin-qizlarning ham og'zilaridan behayo, beparda uyat so'zlar chiqayotganini eshitib yoqa ushlaysan. Ular bunday yomon tarbiyani qayerdan o'rganishadi, degan haqli savol tug'iladi. Albatta yomon odamlardan, ba'zan esa yomon ota-onalardan. Uyati, nomusi yo'q

odamlardan hamma narsani kutish mumkin. «Qush uyasida ko'rganini qiladi», degan naql bejiz aytilmagan. Ayniqsa, ota-onadan yuqun uyatli illatlardan voz kechish oson emas. Ba'zan ayrim kattalar bilib-bilmay jahl ustida uyat so'zlarni davralarda, ma'rakalarda aytib yuborishadi. So'ng bundan o'zlari ham xijolat bo'lishadi, boshqalarni ham uyatga qo'yadi. Ba'zan bolalar, o'smirlar, hatto ayrim qiz bolalarning o'zaro suhbatlari chog'ida o'zlari ma'nosini aniq tushunib yetmaydigan ruscha so'kishlar og'izlaridan bemalol chiqib ketaveradi. Buning jamoat joylarida aytilayotgani ko'pchilikning nafsoniyatiga tegadi, g'ashini



keltiradi. Hatto bu haqoratli so'zlarni aytgan emas, eshitganlar uyatdan qizarib ketadi.

Uyat odamning kimligini, qandayligini va qanday ma'naviyat egasi ekanligini ko'rsatuvchi tarbiya mezonlaridan biri. Qolaversa, uyat eng yuksak insoniy fazilatlaridan sanaladi. Masalan, hatto uyatning o'limdan og'irligi to'g'risida hikmatlar, rivoyatlar bejiz aytilmagan. Siz buni yaxshi bilasiz.

Ko'cha-ko'yalarda ba'zilar uyat so'zlar aytib, uyat qiliqlar qilishlari yetmaganidek, ayrim yoshlarni tasqara va uyatsiz kiyimlarni kiyib yurganlariga nima deysiz? Kiyim, avvalo, odamning ma'naviyatini ko'rsatadigan, madaniyatini belgilovchi mezonlardan biri. Uyatli kiyimlarni kiyib yurganlarida go'yo uyat tuyg'usi yo'qolib ketganga o'xshaydi.

Xullas, o'zimizda uyat tuyg'usini qancha tarbiyalasak, shuncha yaxshi. Uyat nimaligini qancha tez anglab yetsak, shunchalar uyatsizlikdan uzoqlashgan bo'lamiz. Bilib qo'yingki, ko'pgina illatlarning uyasi – uyatsizlikda.

Buyuk rus adibi Lev Tolstoy yozganidek: «Odamlar oldida uyalish yaxshi fazilat, ammo bundan ham afzali o'zing o'zingdan uyalishingdir».

Ashurali JO'RAYEV

Zarina **MELTQULOVA**, 1996-yilda Termiz shahrida tug'ilgan. Hozirda poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 164-maktabning 9-sinfida o'qiydi. 2006-yili «Kamalak» Bolalar tashkiloti a'zolariga qabul qilingan. 2008–2009-yillarda a'lo o'qishi, namunalari xulqi uchun sinf sardori etib saylangan. 2009–2010-o'quv yilida maktab Sardorlar Kengashidagi faol ishtiroki, o'tkir zehni uchun tuman Kengashining «Umid» yo'nalishi sardori vazifasida ish yuritgan. Ayni paytda Chilonzor tumanidagi Sardorlar Kengashining «Axborot-tahlil va matbuot» yo'nalishi sardori.

O'tgan yili faolligi bois «Yil «Kamalak» sardori» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan.

SAHIFAMIZ MEHMONLARI:

Dildora **ELCHIBOYEVA**, 1995-yilda Jizzax shahrida tug'ilgan. 1-sentabr Dildora uchun qo'shaloq bayram. Ilk saboqni Jizzaxdagi 7-umumta'lim maktabida olgan. Hozirda Chilonzor tumanidagi 164-maktabning 9-«D» sinf o'quvchisi. 2010-yilda Chilonzor tumani «Kamalak» bolalar tashkilotiga a'zo bo'lgan. Yil yakunida «Eng tashabbuskor sardor» nominatsiyasida g'oliblikni qo'lga kiritgan.

Ayni paytda tuman Sardorlar Kengashining «Ma'naviyat va ma'rifat» yo'nalishi sardori vazifasini sidqidildan bajarayapti.

Ikki dugonaning shiori bir: «Vatan, do'stlik va xalqparvarlik uchun».

Men sardorman! Bu so'zni aytish va unga loyiq bo'lish uchun o'quvchi, avvalo, sinfdoshlariga, maktabdoshlariga, qolaversa, barcha tengdoshlariga har tomonlama o'rnak bo'la olishi lozim. Buning uchun esa o'quvchidan katta mas'uliyat talab etiladi va u bir kun kelib, albatta, o'z mahsulini beradi. Chunki bugungi sardor, ertangi yetakchi, rahbar, qolaversa, bilimdon inson bo'lib yetishishi shubhasiz. Zero, donishmand xalqimiz ta'kidlaganidek: uch omil – SALOMATLIK, SOG'LOM FIKR, KOMIL AXLOQ insonni saodatga eltadi.

Demak, yangi sahifa – «MEN SARDORMAN».

SAODATNING UCH OMILI

Bugun sardorlar muhokamasida BAXT mavzusi



– Baxt nimada? Albatta yaxshilik, ezgulikda. Kimki bu muqaddas so'zlarni o'ziga shior qilib olsa va unga amal qilsa rohat-farog'atda yashaydi. Bu chinakam BAXT emasmi? – deya jiddiylik bilan javob berdi Zarina.

– Baxt – puxta bilim olishda, hunar o'rganishda, sabr-toqatda. Sabrli insongina ezgu maqsadlariga erishadi, – bo'sh kelmadi Dildora ham. – Yaqinda o'tkazilgan «Qadriyat, urf-odat, an'ana va yoshlar», «Varraklar sayli» kabi barcha loyihalarda bor mahoratimizni ishga soldik. Bo'sh vaqtimiz deyarli yo'q. Bu men uchun BAXT!

– To'g'ri aytasiz, Dildora, – deya fikrini davom ettirdi Zarina. – Shunday vaqtlar bo'ladiki, tashkilotdagi tadbirlar bilan maktabdagi, oiladagi tadbirlarimiz bir paytda to'g'ri kelib qoladi. Bu kabi vaziyatlardan oqilona chiqib ketishga harakat qilamiz. Albatta birinchi navbatda maktabdagi tadbirlarimizni o'tkazishga urinamiz. Avvallari dadam tashkiliy ishlarimga ko'pam ro'yushlik bermasdilar. Biroq barcha ishlarimga

ulgurayotganim, shu bilan birga yutuqlarimni ko'rib quvonganlarini sezganman. Bu ham BAXT!

– Biz sinfdoshlar, Sardorlar Kengashidagi sardorlar bilan juda ahilmiz. Shuning uchun ham loyihalarimiz, tadbirlarimiz jonli, qiziqarli o'tadi. Ulardek qadrdon do'stlarim borligidan doimo farxlanaman. Bu eng katta BAXT, – deydi Dildora do'stlarining ismlarini birma-bir sanab.

Tengdoshlaringiz Zarina va Dildoraning BAXT haqidagi fikrlari bilan tanishdngiz.

Xulosani o'zingiz chiqaring. Aziz sardorlar! Aminimizki, men sardorman, deyish uchun yuqoridagi uch omil sizda mujassam. Ortingizdan atrofda qilarni ezgu ishlaringizga ergashtirayotganingiz ham sir emas. Ular haqida bizga, albatta, yozib yuboring.

Feruza SOYIBJON qizi



Buxoro viloyati «Kamalak» BT raisi Adolat Akromova mazkur loyiha xususida shunday deydi:

– Faoliyatini boshlagan loyiha hamda Buxorodagi «Ko'lna va boqiy Buxoro» monumenti atrofidagi

ishlari Buxoro viloyatida tashkil etilgan «KAMALAK» muzeyidan joy oladi.

«BAXTLI BOLALIK» loyihasi bolalarni Vatanning sodiq farzandlari va komil inson etib tarbi-

«Milliy o'yinchoqlar» festivali; Bolalarning tasviriy va amaliy san'at ko'rgazmasi;

«Men ham askar bo'laman!» loyihasi;

«BMTning mingyillik rivojlanish maqsadlari mening nigohimda» targ'ibot-tashviqot aksiyasi;

«Bola huquqlari davlat himoyasida» loyihasi;

«Sog'lom avlod» bolalar shartakiadasi;

«Qadriyat, urf-odat, an'ana va bolalar» festivali;

«Kamalak» a'zosiman» loyihasi;

«Kamalak» bilimdonlari» tanlovi;

«Biz bir safdamiz» loyihasi; Eng namunalari «Kamalak» Bolalar tashkilotining taqdimoti.

Aziz tengdosh, Siz ham biz bilan «Kamalak»chilar loyihalarida faol ishtirok eting!

Akobir NOSIRXO'JAYEV

BAXTLI BOLALIK

Yaqinda «Kamalak» bolalar tashkilotining 10 yilligiga bag'ishlangan «Baxtli bolalik» loyihasining matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Unda 150 ga yaqin «Kamalak» BT a'zolari, «Kamolot» YOJH vakillari, viloyat «Kamalak» BT raislari ishtirok etdilar.

Anjuman davomida 20 dan ortiq loyihalar doirasida tadbirlar, davra suhbatlari, uchrashuv va konsertlar o'tkazilishi rejalashtirildi.

ko'rgazma chindan-da katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmadan ko'zlangan asosiy maqsad – bolalarni monumentning mohiyati bilan atroflicha tanishtirish va ular ongida Vatanga muhabbat tuyg'ularini shakllantirishdan iborat. Ko'rgazmada amaliy san'at yo'nalishi bo'yicha uchta, tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha uchta o'rin ajratilgan bo'lib, buxorolik 150 nafar o'quvchining ijodiy ishlari ko'rib chiqiladi. G'oliblarning

yalash, ona yurti bilan g'ururlanish tuyg'ularini kuchaytirishdan iboratdir. Loyiha «Kamalak» Bolalar tashkilotining «Oltin meros», «Ma'naviyat va ma'rifat», «Ekosan», «Vatanparvar», «Mehr-shafqat», «Umid», «Sog'lom avlod uchun» yo'nalishidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, quyidagi tadbirlarni o'z ichiga oladi: «Ekologiya va men» bolalar Konferensiyasi;



Sanoqli kunlardan so'ng respublika-mizdagi barcha maktablarda so'nggi qo'ng'iroq sadolari baralla jaranglaydi. Mustaqil hayot bo'sag'asidagi qablari oppoq orzularga limmo-lim yoshlarimiz uchun bu kunlar hayajoni bir umrga tatigulik. Ular orasida kim bo'lsam ekan, degan savolga javob topolmay tunni tongga ulayotganlari ham yo'q emas, albatta. Lekin bitiruvchilarimizning aksariyati bu savolga allaqachon javob topib, parvozga chog'tangan polapon misoli yuksaklarni ko'zlamodalar.

Quyida ulardan ayrimlarining beg'ubor orzulari, kelajak rejalari bilan tanishasiz.

KATTA YO'LNING BOSHIDA...



MAKTABNING AZIZ QIZI

Yana bir xushxabar: Aziza tuman fan olimpiadasida rus tili fani bo'yicha ishtirok etib, birinchilikni, viloyat bosqichida esa ikkinchi o'rinni qo'lga kiritdi.

– Aziza juda ko'p o'qiydi, tushunolmay qolgan mavzusini o'zlashtirib olmaguncha o'qituvchilarini ham holi-joniga qo'ymaydi, – deydi ustoz Zabo Burhonova shogirdi haqida faxr bilan gapirib. – Do'stlaridan yordamini ayamaydi, bilmaganlarini ulardan so'rab o'rganishdan orlanmaydi.

Maqolamizni bejiz «Maktabning aziz qizi» deb nomlamadik. Chindan-da, Aziza maktabda ham, oilada ham bunday nomga munosib qiz. Hademay maktabni tamomlash arafasida turgan bu tengdoshingiz «Men sevgan kasb» mavzudagi inshosida adliya xodimasi bo'lish niyatida ekanligini yozibdi. Unga maqsadga erishish yo'lida omadlar tilab qolamiz.

Sa'dulla QOZOQOV

Bunday sharaflı nomga sazovor bo'lgan qiz kim ekan-a, deysizmi?

U ismi jismiga monand Aziza Mirzamurodova, Jizzax viloyatining Zarbdor tumanidagi 1-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 7-sinfida tahsil oladi. Bilimga chanqoqligi, jamoat ishlarida faolligi, o'zlashtirishi pastroq bo'lgan sinfdoshlaridan yordamini ayamasligi bilan tengdoshlariga ibrat bo'layotgan Aziza turli ko'rik-tanlovlarda ham faol ishtirok etadi.

Yaqinda 3-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan fanlar olimpiadasida tumanidagi bilim maskanlaridan 300 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Shulardan 17 nafari olimpiada g'olibi bo'lishdi. Ular safida Aziza ham bor edi.



TADBIRLAR SAMARASI

Jizzax shahridagi 22-umumta'lim maktabida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish xonalari bugungi kun talabi darajasida jhozlangan bo'lib, o'quvchilarga keng ko'lamda kasbiy axborot va maslahat beradigan maskanga aylantirilgani quvonarlidir.

Yaqinda bilim dargohining tajribali o'qituvchisi, Xalq ta'limi a'lochisi Marhabo Aliyeva bitiruvchi sinf o'quvchilari bilan «Men orzu qilgan kasb» mavzuida mashg'ulot o'tkazib, o'quvchilarga «Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?», «Kasb-hunar tanlashingizda kutubxonaning roli bormi?», «Kompyutering-chi?», «Maktabda qaysi to'garaklarga a'zosiz?», «Ota-onangizning kasbi sizga yoqadimi?», «Qaysi kasb

egalariga havas qilasiz?» kabi anketa savollarini tarqatdi. O'quvchilarga anketani to'ldirishda ism-sharifini yozmaslikka ruxsat berildi. Bu esa ularga erkin fikrlash, savollarga ro'y-rost javob berish imkonini tug'dirdi.

Elmurod Qurbonov, Gul Abduhamidova, Nilufar Xudoyqulova kabi o'quvchilar turli kasblarga maqol va hikmatli so'zlardan keltirib ta'rif berdilar. Ayniqsa, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari bilan suhbatlar juda maroqli, savol-javoblarga boy bo'ldi.

Tadbir yakunida o'quvchilar kelajakda nafaqat o'zlariga, balki jamiyatga ham foydali bo'ladigan ta'lim yo'nalishini to'g'ri tanlash lozimligini tushunib yetganlarini ta'kidlashdi.

Abdulla SAIDOV



Surayo
RAHMONOVA,
Jizzax viloyati, Zomin
tumanidagi
15-umumta'lim
maktabining
9-sinf o'quvchisi:

BIR G'ISHT BO'LIB DEVORINGGA

YARASAM, DEYMAN!

ORZU – shirin, totli tuyg'u. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf orzu tuyg'usini shunday ta'riflagan edi:

- Orzu nima, ey inson?
- Orzu yurgan yo'lingdur...

Demak, har kim istaganicha orzu qilishi mumkin. Ammo u ro'yobi bilangina go'zaldir. Chin dildan istak bo'lsa, u albatta amalga oshadi. Mening orzularim ham poyonsiz. Ular ichida eng ulug'i – Vatanimga kerakli inson bo'lish. Unga yetishish uchun esa yurtimizda barcha sharoitlar mavjud. Istiqold tufayli imkoniyatlar eshigi keng ochildi. Bizdan esa faqat harakat qilish, intilish, izlanish talab qilinadi.

Hademay maktabni tamomlab, mustaqil hayotga qadam qo'yamiz. Niyatim jumalist bo'lib, ozod, obod diyorum madhini kuylash.

Ona yurtim, bir g'isht bo'lib devoringga yarasam, deyman!

ZAMONBEKA tayyorladi

MUSTAQILLIK – ULUG' NE'MAT



Sadoqat
JAMOLOVA,
Namangan viloyati,
Chortoq tumanidagi
22-umumta'lim
maktabining
9-«A» sinf
o'quvchisi:

Har yili Xotira bayrami arafasida erta tongdanoq bobojonimnikiga o'tlanamiz. Bu yil ham shunday bo'ldi, singlim ikkimiz bobomni yo'qlab bordik. Odatimizni yaxshi bilgan bobojonim bizga darvoza oldida peshvoz chiqdilar, hol-ahvol so'rab, uyga boshladilar. To'kin dasturxon atrofida gurunglashib o'tirdik. Shunda bobom biroz xomush tortib, o'ygacha cho'mib qoldilar. Sababini so'rasak:

– Ona qizlarim, peshonangizga tole bitilgan ekan, mana shunday farovon zamonada yashayapsizlar.

Bizning davrimizda bunday sharoitlar yo'q edi. Ikkinchi jahon urushi tufayli ko'plarning yostig'i quridi. U davrda bolalar kitob-daftra nimaligini bilishmagan, maktabga borishmagan. Hozir esa istiqol sharofati bilan hamma sharoitlar muhayyo. Yurtboshimiz sizni, o'g'il-qizlarim, deya ardoqlaydilar. Shunday ekan, bu kunlarning qadriga yeting, astoydil bilim oling, biz yetmagan cho'qqilarni zabt eting. Ota-onangiz, ustozlaringiz ishonchini oqlang. Peshonangiz toshdan bo'lsin, – dedilar mehr bilan boshimizni silab.

Uyga borib, bu so'zlarning ma'nosini chaqishga urindim. Darhaqiqat, mustaqillik ulug' ne'mat. Uning qadriga yetmog'imiz, a'lo baholarga o'qib, turli tanlovlarda qatnashib, yurtboshimiz ishonchini oqlashimiz lozim.

Shu kundan e'tiboran o'z oldimga maqsad qo'ydim: xalqimning bir shoira qizi bo'lib, ozod, obod diyorum madhini kuylayman.



GUL MAKONIM

O'zing jannat iforimsan,
Qora qosh, ko'z xumorimsan,
Tanburimsan, dutorimsan,
Jon-jahonim – O'zbekiston,
Gul makonim – O'zbekiston!

Maysalarga bosib yuzni,
Topolmadim loyiq so'zni,
Uzolmayman aslo ko'zni,
Yurak qonim – O'zbekiston,
Tanda jonim – O'zbekiston!

Mehr qo'yib gulbog'ingga,
Shod yashaymiz quchog'ingda,
Ulg'ayamiz ardog'ingda,
Dil dostonim – O'zbekiston,
Tinch osmonim – O'zbekiston!

Sadoqat KARIMOVA,
Xorazm viloyati, Urganch shahri

O'ZBEKISTON

O'zbekiston atalar,
Biz tug'ilgan o'lkamiz.
Qaynoq mehrin his qilib,
O'samiz bag'rida biz.
Jamoliga ko'rk bo'lib,
Tog'lar bag'ishlar chiroy.
Jannatmisol bog'lari,
Ajib ne'matlarga boy.
O'zing bebaho makon.
Ona yurt, O'zbekiston!

Sarvinoz TOJIYEVA,
Toshkent shahri

QO'SHIQ KUYLAR...

Nigohlari shirin-shirin
Qo'shiq kuylar bir qizcha.
Bilmoq bo'lib borliq sirin,
Jo'shib kuylar bir qizcha.

Ko'k bag'riga yulduz bo'lib,
Uchmoq bo'lar aftidan.
So'ng quyoshni xushnud etib,
Tutmoq bo'lar kaftida.

Qo'llarini quyosh tomon
Cho'zgancha gir aylanan.
Borliq uning ko'zlariga
Qo'shiq bo'lib joylanar.

Nigohlari shirin-shirin
Qo'shiq kuylar bir qizcha...

Omonoy RABBIMOVA,
ijodkor o'qituvchi.
Samarqand viloyati

MAJNUNTOL

Gul vodiylar yashnadi so'zsiz,
Daraxtlar ham kiydi ko'k libos.
Ta'rifiga bo'lar so'z o'ziz,
Go'zalligi jannatlarga xos.

Majnuntollar bilan sirlashdim,
Ayon bo'ldi menga dil rozi.
Do'stlaringa hayrat ulashdi,
Bulbullarning yoqimli sozi.

Mohira YO'LDOSHEVA,
poytaxtimizdagi
292-maktabning
8-«V» sinf o'quvchisi

YOMG'IR

Samolardan xabar olib keldingmi, yomg'ir,
Ona yerga malham bo'lib yeldingmi, yomg'ir?
Yerimizni ko'kartirding, rahmat, yomg'irjon,
Rizqimizni ko'paytirding, rahmat, yomg'irjon

Zavq berasan senga boqqan nigohlarimga,
Kuch berasan unib-o'sgan giyohlarimga.

Ma'rifat BAQOYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
2-sonli O'quvchilar ijodiyot markazi qoshidagi
«Yosh qalamkashlar» to'garagi rahbari

BAXTIMSAN, YOSHLIK!

Qancha bahorlarim o'tdilar gulgun,
Beg'ubor dilimni o'tlarga solib.
Mana hozir esa xayollar so'lg'in,
Savollar so'roqlar o'rtaga olib.

O'tdilar doimo dilimni chog'lab,
Dedilar, barchadan go'zalsan tengsiz!
Vaqt o'tib ketibdi, ko'zlarim bog'lab,
O'ylasam, depsinar yuragim unsiz.

Har chog' ko'klam isi ura dimoqqa,
Entikib hidlardim, ajib hayajon.
Endi majolsizman bir so'z demoqqa,
Yillar shiddat ila o'tar beomon.

Gullarning vasliga ayladim havas
Sen mening shodligim, baxtimсан, dedim.
Yoshligim, bag'rimda qolgin bir nafas,
Sen bilan bir umr baxtiyor edim.

Muqaddas YUSUPOVA

Xudoyberdi TO'XTABOYEV

yana biri shuki, anjirzor bog'ida yoshi saksonlarga borib qolgan, shu bog'ning ham qorovuli, maslahatchisi, ham yosh yigitcha-yu qizlarning tarbiyachisidek bo'lib ishlayotgan Qobil boboga tezroq ro'para bo'lishi kerak. Ko'pincha boboning maslahati qo'l keladi unga. Uning gapi bilan yutqazay-yutqazay deb turgan o'yinni yutib olaveradi.

Kolxozlar zamonidan qolib ketgan katta hovuz bo'yidagi, baland ko'tarilgan loy supada, urinibgina qolgan to'shak ustida yonboshlab, ho'plab-ho'plab ko'k choy ichayotgan ekan, bobo shoshmasdan o'midan turdi.

Yo'ldoshxon bozorda eshitgan gapini shoshilib aytdi. Zulxumor uncha-muncha qo'shimcha ham qilib turdi. Hozir anjirzorda uch tonnadan ortiq yetilgan meva bor, ularni qadoqlab ham, bankaga solib ham bo'lmaydi, ko'tarasiga sotish kerak.

– Bolam, anjirni ko'tarasiga sotaylik, deb keldilaringmi? – shoshmasdan so'radi bobo.

– Boshqa ilojimiz yo'q, bobojon.

– Hoy Zulxumor qizim, sen ko'pincha dono maslahatlar berasan. Ayt-chi, anjirni ko'tarasiga sotsanglar bo'ladimi?

– Bobojon, mening fikrim shunday, qizlar ham kelsin, o'g'il bolalar ham kelsin, ovozga qo'yaylik.

– Lekin baribir aqllisan-da, prokuroming qizi, beriroq kel, boshingni bir silab qo'yay, – deb qizning boshidan silab qo'ydiki Qobil bobo. – Xudoga shukr, Yo'ldoshxoniga sendek aqli yordamchini ro'para qilganiga shukr.

(Davomi bor)



(Boshi o'tgan sonlarda)

QIZ TALASHGAN O'SMIRLAR

aylanay, o'tgan yili ham anjiringizdan oluvdim. Voy, biram shirin ekaniki, nabiralaram biram mazza qilishdiki, hammasining tomog'ida angina boridi, anginasini ham anjirning shirasi tuzatib yubordi.

- Siz aytgan shahar uzoqmi?
- Uzoq ham gapmi, tupkaning tagida.
- Anjirni shisha bankada emas,

qutlarga joylab sotsa ham yetadimi?

– Bunisini men bilmayman, lekin yetish-yetmasligini biladiganlardan so'rang, aylanay... Anjiringizdan hali ko'pmi?

- Bog'imizdagi anjirlar shig'il pishdi hozir.
- Qorasidan ham bormi?

– Bor, aylanay, opa, bor, nosqovoq nusxasidan ham, barmoq nusxasidan ham, hammasidan ham bor, hammasi shig'il pishdi.

Gap tadbirkor-u fermerning ko'zi o'tkirligi, qulog'ining ding bo'lishida ham emas, balki kosaning tagida nim kosasi borligini, eshitganini tezroq hazm qila olishida ham bo'lsa kerak. Bir dona anjir bitta qovungga teng bahoda pullanadigan bo'lsa, men o'sha bozorni tezroq egallashim kerak, deya o'ylay boshladi Yo'ldoshxon. Shohayotganining sababidan

Anjirlaridan bir qismini ko'tarasiga olgan notanish ayol yoqimtoygina, shirinso'zgina ekan. Gap orasida o'zga yurtdagi shaharda bir dona anjir bir qovun bahosida pullanyapti, degan gapni aytib yubordi. Ataylab aytdimi, bilmasdan aytib yubordimi – bu yolg'iz Allohning o'ziga ma'lum. Har qalay shu gapni aytdi u. Fernerning ham, tadbirkorning ham ko'zi o'tkir, qulog'i ding bo'ladi, burni ham yaxshi hid olishi kerak, deyдилar. Yoqimtoygina ayol e'tiborsizgina bo'lib so'zlayotganida Yo'ldoshxonning qulog'i ding edi.

– Opa, qaysi shaharda anjirning bahosi yuqori bo'ladi? – deb so'radi u.

– Aylanay, mening katta qizim o'sha shaharda yashaydi. Mana shu anjirlaringizni shisha bankaga joylab, o'sha yoqqa jo'natib turaman. Esingizdami,

O'N IKKI DOR MO'JIZASI

Yaqinda Navoiy shahridagi Alisher Navoiy nomli madaniyat va istirohat bog'ida «O'zbek xalq tomosha san'ati va milliy o'yinlar» festivali bo'lib o'tdi. Ikki kun davom etgan bayramda bog' hududiga o'n ikkita dor o'rnatildi. 18 ta an'anaviy sirk san'ati guruhlari tomosha dasturlarini namoyish etdilar.

Festivalda xalq ijodiyotining to'qqizta janri bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarda g'olib deb topilgan besh yuzdan ortiq qatnashchisi bo'lgan milliy xalq o'yinlari dasturini namoyish etuvchi guruhlar, dorbozlar jamoalari, an'anaviy sirk san'ati guruhlari, qo'g'irchoqbozlar, lapar va o'lanlar, shuningdek, katta ashula ijrochilari o'z dasturlari bilan ishtirok etdilar.

Milliy xalq o'yinlari bo'yicha Andijon viloyatining Oltinko'l tumani badiiy jamoasi, Samarqand viloyati, Bulung'ur tumani madaniyat uyi qoshidagi «Chavqi» folklor-etnografik xalq ansambli, Shofirkon tumanidagi «G'ulote burgutlari» jamoasi munosib qatnashdilar. Ayniqsa, Andijon viloyatining Paxtaobod tumanidan «Madamin dorboz» xalq jamoasi

dorbozlarining chiqishlaridan zavqlangan tomoshabinlar qarsaklari maydonni to'ldirdi. Namanganning «Norin dorbozlari» va Farg'onaning «Polvon» oilaviy xalq dorbozlik jamoalarining dordagi o'yinlari ham tomoshabinlar tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi.

Namanganlik ikki yoshli Javohir Bekmirzayev, andijonlik Muhammadamin O'ktamjonov, qo'qonlik Muhammadyusuf Muhammadjonov va sirdaryolik uch yoshli Go'zal Mo'ydinova «Jajji dorbozlar» nominatsiyasi bo'yicha g'olib deb topilib, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlandilar.

Bunday ajoyib tomoshani tashkillashtirgan Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Respublika Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy metodik hamda axborot markazi, O'zbekiston madaniyat xodimlari kasaba uyushmalarining Markaziy Kengashi, Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi hamda Navoiy viloyati hokimligidan navoiyliklar behad mamnun bo'lishdi.

Darhaqiqat, milliy o'yinlar yo'qolmaydi, aksincha, ular qadriyatimizni, madaniy merosimizni boyituvchi noyob xazina bo'lib qolaveradi.



Kuni kecha poytaxtimizdagi Mirzo Ulug'bek nomli madaniyat va istirohat bog'i ham odatdagidan gavjum bo'ldi. Bu so'lim maskanda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, xalqaro toifadagi hakam Mamajon Muhiddinov xotirasiga bag'ishlangan maktab o'quvchilari o'rtasidagi X'an'anaviy shaxmat turniri bo'lib o'tdi.

Musobaqaga kelgan 50 nafar yosh shaxmatchilarning raqiblari bilan dadil dona surishishlaridan ustozlari, ota-onalari behad mamnun bo'ldilar.

Ayniqsa, aql gimnastikasining o'g'il bolalar o'rtasidagi g'olibini aniqlash oson bo'lmadi. Yarim final va final qismi ishtirokchilarnigina emas, balki tashkilotchilarni ham hayajonga

HAMIDJON

KASPAROVNI YENGD!

soldi. 71-maktabning 7-«A» sinf o'quvchisi Aram Kasparov raqibi 286-maktab o'quvchisi Hamid Egamovning 2-o'rinni band etishga imkon yaratib berdi.

– Men Toshkent viloyati bo'yicha to'rt karra championman. Ammo Kasparov bilan bellashish bir muncha qiyin bo'ldi. Musobaqada ustozim Baxtiyor aka Xolmirzayevdan o'rgangan debyutlarim va Karo-kann usuli menga qo'l keldi, – deydi Hamid raqibiga hurmat bilan.

– Hamid aka bilan finalda bellashganimdan xursandman, – deydi 256-maktabning 4-sinf o'quvchisi Artyom Grigorov. – To'g'risi, men 1-o'rinni Hamid akaga osonlikcha berib qo'yadim. G'olib bo'lish uchun astoydil harakat qildim. Lekin baribir raqibim g'olib bo'ldi. Uning tajribasi menikidan ancha ko'p-da! Mana shunday turnirni tashkil etgan tashkilotchilarga rahmat!

– Zebo opa, yomg'ir yog'ib turibdi, biz shaharning eng chetida bo'lsak, deya, turnirga borishga eringan edik, – deyishdi 286-maktab o'qituvchilari. – «Borasizlar», deya o'z so'zida qat'iy turib olgan Mirzo Ulug'bek tumani Xalq ta'limi bo'limi bosh mutaxassisi Zebo Xoliqova birinchi o'ringa kiritishimizga sababchi bo'ldi.

Yomg'irni bahona qilib, musobaqaga kelmoqchi bo'lmaganimizdan uyalib qoldik.

G'olib va sovrindorlarga «Bolalar sportini rivojlantirish» jamg'armasi Toshkent shahar filiali hamda homiyilar tomonidan ta'sis etilgan sovg'alar topshirildi.



QIZLAR-CHI, DEYSIZMI?

Mazkur turnir tumanimizda 10 yildan buyon o'tkazib kelinadi. Unda bizning maktabimiz o'quvchilari ham faol ishtirok etdilar. Qizlar o'rtasidagi bahsda maktabimizning 8-«V» sinf o'quvchisi Manzura Abduhatova birinchi o'ringa egalladi. Manzura shaxmat bilan yetti yildan buyon shug'ullanib keladi. Uning yutuqlariga ustoz – Qibray tumani markazidagi shaxmat to'garagi rahbari Baxtiyor aka Xolmirzayev ham munosib sherik desak, adashmaymiz.

Muhtaram YOQUBOVA,
256-maktabning ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

TURSunBOYNING OMADI

Qoraqalpog'istonlik tengdoshingiz Tursunboy Yo'ldoshev hech bir musobaqadan medalsiz qaytmaydi. Shuning uchun u hozirda tumanimizning kichik chempioni degan nom oldi. Karatening shotokan-do turi bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan 12 yoshli chempionimizning ayni damda uchta oltin, ikkita kumush, beshta bronza medali bor.

Yutuqlaridan quvonib, kelajakda katta sportchi bo'lishni orzu qilayotgan Tursunboyning chin ma'noda omadi bor. Niyatimiz, omad uni aslo tark etmasin!

Fazilat RAHMATULLAYEVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
To'rtko'l bank kolleji talabasi





QO'SHIQ

Yana oppoq tong otdi. Tog'lar ortidan quyosh mo'raladi. Bolakay uyg'ondi. Xursand. Har kungidek uzoq yuvindi. Qo'shiq eshitgani keldi, quv nab-quv nab. Har kungidan-da sho'xroq, shaloladay toza va o'ynoqi.

Radioni buradi. Qo'shiq yo'q. U istagan, butun vujudi bilan sevgan, eshitmoqchi bo'lgan qo'shig'i yo'q edi. Radiodan bir butun dunyoni larzaga solguday chaqiriq yangrardi: «Atom quroliga chek qo'ying! Dunyoga tinchlik bering!.. Samolyotlar, raketalar emas, oppoq kabutarlar uchsini samoda!»

Radio tinimsiz so'zlar va ommaviy qirg'in qurollarini yaratgan odamlarga murojaat etardi...

Vo'ajab! Allaqanday boshqa to'lqin ulanib qolibdi. Lekin bolakay buni qaerdan ham bilsin?! Ajablendi. «Ularning yuragi muz ekanmi, o'yladi bola, qush — qushni tushunadi-yu, nahotki odam — odamni tushunmasa? Bola bola-da, kim do'st,

kim g'anim ekanligini bilmaydi. Ularning yovuz niyatini xayoliga ham keltirmaydi.

... Radioda hamon qo'shiq yo'q edi. Bolakayning esa qo'shiq eshitgisi kelib, quloq tutadi. Har tong qo'shiq bilan boshlansa qaniydi...

U shu tilak bilan uyg'onadi har kuni.

Afsus... Hamon shunday shum niyatli odamlar bor ekan bu dunyoda! Hatto radiodagi qo'shiqqa ham yo'l berishmoqchi emas. Lekin qo'shiq yangrardi. Abadiy bir qo'shiq, yuraklarni larzaga solguday. Muz yuraklar ham erib ketadi o'shanda. Bolakay bunga ishonadi.

Chaqiriq ohista tindi. Sukunat. So'ng ajib qo'shiq yangray boshladi. Go'yo quyosh chiqdi yangidan. Bolaning butun vujudi yayrab ketdi. Derazani ochib yubordi. Xonaga musaffo bahor epkini entikib kirdi.

Jabbor RAZZOQOV

SARVARBEKNING BOG'I

Poytaxtimizning Sirg'ali tumanidagi 300-maktabning 1-«M» sinf o'quvchisi Sarvarbek bahorgi ta'tilini shahardan ellik kilometr uzoqlikda yashaydigan buva va buvisinikida o'tkazdi. Uylaridan sal naridagi buloqdan har kuni zilol suv olib kelib, kattalarning duosini oldi. Bobosiga 60 tup terak ko'chati, ikki tup olma, uch tup o'rik, yong'oq va boshqa mevali daraxtlarni o'tqazishda yaqin yordamchi bo'ldi. Bobosi aytganidek, terak beor daraxt ekan. Qayerga suqib qo'ysang, suvidan boxabar bo'lib tursang bo'ldi ekan. Hozir Sarvarbekning teraklari barg chiqargan. Mayin shabbodada shovullab bahr-u dilingizni ochib yuboradi.



Rosti, mening Sarvarbekka havasim keldi. «Ko'chat ek, bog' yarat!». Bu yilgi bahor — umrining bir yili behuda o'tmadi. Mana shunisi katta yutuq.

Yusuf FAYZULLO

Inson qadri baland yurt



Bu ibora tadbirga yig'ilgan otaxonlar tilidan ko'p bora takrorlandi. Ular ko'zlariga yosh olib, bugungi tinch, farovon hayotimiz, osoyishta kunlarimizga shukronalar aytishdi. O'g'il-qizlarga Ikkinchi jahon urushi keltirgan ofatlar haqida,

o'zlari guvoh bo'lgan mudhish voqealardan so'zlab berdilar.

Otaxon-u onaxonlarimizning gaplaridan ta'sirlangan Olmazor tumanidagi 29-maktab o'quvchilari, Olmazor tibbiyot kolleji talabalari, Toshkent Tibbiyot akademiyasi qoshidagi Tibbiyot akademik litseyi o'quvchilari O'zbekistonimizni yanada asrab-avaylashga, xalqimizga munosib farzand bo'lishga so'z berdilar.

Tadbir yakunida o'quvchilar kuy va qo'shiqlar, sahna ko'rinishlar bilan mehmonlarni xushnud etdilar.

Ikki avlod vakillarining uchrashuvlari yosh-u keksada katta taassurot qoldirdi.

Alisher ABDULLAJONOV

Quyida tushirib qoldirilgan so'zlarni topib, o'rniga qo'ying va bizga jo'nating!



Bu yorug' olamda Vatan bittadir, Bittadir dunyoda ... degan nom. Abdulla ORIPOV

Ona — hayotning guli, Bola — uning ...

Xalq maqoli

Yaxshi kishi ko'rmagay ... hargiz Har kimki ... bo'lsa, jazo topg'usidir. Zahiriddin Muhammad Bobur

Yerni go'zal qilgani sayin Go'zal bo'lar o'zi ham ... Erkin VOHIDOV

O'ZINGNI SINAB KO'R

LINVORD MUAMMONOMASI

MUAMMONOMA	7	1	8	1	4	*	6	8	1	4	2	8	*	8	5	6	3	1	*	7	8	9	1	5	8	.
Havo qatlami, osmon	Ko'rkam, gulzor maskan	Harbiy xizmatchi	Bo'linmas nomini olgan fizik zarra	Ip-ypak aralash mahalliy gazlama	Tog'lik etagidagi tepalik yerlar	Da'voning to'g'riligini tasdiqlovchi davlat	Osiyo qit'asidagi g'arbidagi davlat	Chaq-qon	Shamsiya yili hisobidagi beshinchi oy	Andisha, uyaliq hissi	Kuzpishar quruq meva	Pesh-qadam														
Toshkentning qadimiy darvozalaridan biri	Qirg'iz xalq eposi	Qimmatbaho toshlar o'lchovi birligi	Ishning o'ngidan kelishi	Ko'chatni siyraklashtirish	Sut, shakar va kraxmalli shirinlik	Havf-xatardan qo'rqmaydigan, jasur	Bilimdon, dono	Asaka avto markasi	Yozuvchi, ijodkor	Gullab-yashnagan maskan	Ishning amalga oshirish uchun asos	Tabiiy bo'shliq joy														

Avval ta'riflari asosida javoblarni yozib, linvordni hal eting, so'ng javoblar yozilgan raqamli xonalardagi harflar asosida muammonomani hal etsangiz «O'talar so'zi» to'plamidagi hikmatlardan birini bilib olasiz.

Foziljon ORIPOV tuzdi

Fayzulla ABDULLAYEV



Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan Xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin ORIPOV
Navbatchilar:
Gulyuz ORIFJONOVA,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruz ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeks: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel/faks:
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq.
ISSN 2010-6092
Adadi - 67469
Buyurtma N: J 1779